


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)* magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari**

**Toshkent - 2023**



## **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “7” 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy vazifalari.....	5
2. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistratlar kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
2.3.1. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	10
2.3.2. 70410102 – <i>Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	10
2.4. Kvalifikatsiya.....	10
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

## **1. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)*** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)*** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning otanalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalar:**

**70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)*** – iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatini samarali tashkil qilish va boshqarish, moliyaviy nazoratni amalga oshirish, soliq munosabatlarini tartibga solish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'luvchi moliyaviy hamda statistik axborotlarni shakllantirish, iqtisodiyot sub'ektlarida buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilish va yuritish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida resurslardan foydalanishni tahlil qilish, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish, ichki audit xizmati bo'limlarida auditorlik faoliyatini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarida risklarni boshqarish, moliyaviy hisobotlar ustidan ichki nazoratni amalga oshirish, moliya, moliyaviy menejment, soliq va buxgalteriya hisobi sohalarida professional xizmatlar ko'rsatishga oid kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida;

- vazirlik, qo'mita va idoralarda;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sohaları sub'ektlarida;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruv organlarida;
- aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, auditorlik tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya muassasalari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda kompleks masalalarni yechish.

70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar fan sohasida magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislik fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

**1.2.3. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati.

**1.2.4. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohaları, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatda ularni hisobga ola bilishi;

- vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalaga bilishi;

-axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi:

-tegishli magistratura mutaxassisligi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga ega bo'lishi;
- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- tadqiqotlar uchun ko'rsatkichlar tizimini tanlash va ularning o'zaro aloqasini modellashtirish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

- oliy ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatining auditi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- auditorlik nazorati sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;
- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;
- davlat va mahalliy tashkilotlar, xo'jalik sub'ektlarida ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;
- mahalliy boshqaruvning vakolatli organlari tomonidan hududlar moliyasini boshqarish, tegishli hududlarda budjetlarni shakllantirish, budjet - soliq sohasini isloh qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, me'yoriy - huquqiy hujjatlarini bilish;

-O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini olib boruvchi auditorlik tashkilotlari va yirik soliq to'lovchi xo'jalik yurituvchilarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishi;

- kelgusida auditorlik tashkilotlari tekshiruvlarining turlari, shakllari va axborot manbalarini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblarni yuritish;

- O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari auditini amalga oshirishda qatnashish;

- turli darajadagi budjetlar loyihasini tuzish bo'yicha moliya organlari faoliyatiga qatnashish;

- majburiy xarajatlar reestri asosida turli shakldagi budjet ajratmalarini rejalashtirish;

- hisob-kitoblarni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun turli vositalardan foydalanish;

- kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

- zaruriy statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va talab etilgan tahliliy hisobot yoki umumlashtirilgan qisqacha ma'lumot shaklida taqdim etish;

- statistik va hisob-tahliliy ma'lumotlarning manbalarini hamda iste'molchilarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

- taqdim etilgan loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, ularni amalga oshirishdan olingan moliyaviy-iqtisodiy natijalarni tahlil qilish;

- boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun axborotlarni yig'ishni tashkil etishning ichki axborot tizimini yaratish;

- auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish, auditorlik hisobotini tuzish va uni taqdim etish;

- auditorlik tashkilotlarida va davlatning budjetdan tashqari fondlarida moliyaviy menejmentni, soliq tizimining amaldagi faoliyatini takomillashtirish, bank sektorini, sug'urta va moliya bozorini rivojlantirish, korporatsiyalar moliyaviy faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun moliyaviy va iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish;

- kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish;

- hisob-kitoblarni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun turli vositalardan foydalanish;

- moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning tavsifi asosida nazariy va ekonometrik standart modellarini yaratish, ulardan olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash;

- xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;

- moliyaviy rejalashtirish va prognozlash uchun buxgalteriya, moliyaviy va boshqa axborotlarni tahlil qilish va sharhlash;

- moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi va tendensiyalarini tahlil qilish;

- auditorlik faoliyati bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish;

- xalqaro auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

- xalqaro auditorlik tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish;

- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish;

- taqdim etilgan loyihalarning moliyaviy samaradorligini baholash, ularning moliyaviy-iqtisodiy natijalarni tahlil qilish;

- ilmiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;

- ilmiy-amaliy loyihalar biznes-rejalarini ishlab chiqish va optimallashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 70410102 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, iqtisodiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'rta va uzoq muddatli moliyaviy budjetlarni tuzish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy ko'rsatkichlarini baholash;
- auditorlik tashkilotlarining barqarorligini oshirish va uni modernizatsiyalash orqali rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.
- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda dastur va reja loyihasini ishlab chiqishi;
- bajarilayotgan audit sohasidagi amaliy ishlar mavzusi bo'yicha iqtisodiy modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilishi;
- namunaviy audit hujjatlarini ishlab chiqish va ularni qo'llashi;
- ilmiy va amaliy faoliyatda auditorlik faoliyatini amalga oshirish vositalarini rivojlantirish va ulardan foydalanishi;
- buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish va uni taqdim etishi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob siyosatini shakllantirish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun moliyaviy va iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish;
- tahliliy hisobotlarni tayyorlash, olib borilgan tadqiqot natijalarini izohlash va sharhlash;
- auditorlik faoliyati sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;
- buxgalteriya hisobi ishlarini yo'lga qo'yish, tiklash va qayta tiklash, buxgalteriya hisobi, moliya va soliq masalalari bo'yicha maslahat xizmatini ko'rsatish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- auditorlik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, auditorlar guruhi jamoasini boshqarish;
- audit ishi sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- auditorlik tekshiruvlarini va professional xizmatlarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlar va resurslarini rejalashtirish;
- auditorlik tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini boshqarishda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan auditorlik faoliyati monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;



- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;
- elektron o'qitish usullarini egallash;
- oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;
  - zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
  - o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
  - o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
  - mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;
  - uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;
  - mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
  - o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;
  - namunaviy metodikalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlash;
  - ilmiy va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
  - o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzish;
  - ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy failar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-tadqiqot ishi – mutaxassislikka tegishli muayyan mavzuda magistrlik dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha tadqiqot olib borishga qaratiladi.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) - ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

ilmiy pedagogik ish — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

### **2.4. Kvalifikatsiya: buxgalter-iqtisodchi, auditor, tadqiqotchi-pedagog.**

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), o'qib-o'rganish natijalari, o'kuv sikli, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, amaliy audit, moliyaviy hisobot auditini o'tkazish usullari, xo'jalik yurituvchi sube'kt hisoboti shakllari auditi, moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha auditorlik xulosasi, xalqaro audit, xalqaro auditorlik tashkilotlari, xalqaro auditorlik kompaniyalari, xalqaro audit standartlari, auditning xalqaro standartlarini konseptual asosi, nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlari, audit ish sifati nazorati, auditorlik xulosalarida beriladigan sharhlar, modifikatsiyalangan auditorlik xulosasi, kompyuter tizimi muhitida audit o'tkazish va auditning kompyuterli metodi, operatsion audit, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi prinsiplari, moliyaviy hisobotlarni tuzish konsepsiyasi, moliyaviy menejment, soliq, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari va kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

*[Signature]*



Rektor

K. Sharipov

2023 yil «    »

M.O'.

Toshkent moliya instituti

*[Signature]*



Rektor

T. Teshabayev

2023 yil «    »

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi



Direktor

*[Signature]*  
Sh. Yakubov

2023 yil «    »

M.O'.

O'zbekiston Auditorlar palatasi



Kengash raisi

*[Signature]*  
O. Karimov

2023 yil «    »

M.O'.

O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy  
assotsiatsiyasi



Kengash raisi

*[Signature]*  
M. Tulaxodjayeva

2023 yil «    »

M.O'.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 70410102 – Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri

“ ” \_\_\_\_\_ 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar - Toshkent moliya instituti rektori, professor T.Teshabaev, O'zbekiston auditorlar palatasi Kengashi raisi, professor N.Karimov va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, professor K.Sharipov, mazkur kelishuv dalolatnomasini quyidagilar haqida tuzdik:

1. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi malaka talabi O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar hamda “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 3 avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4796-sonli qarori, 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-60-sonli qarori, 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-61-sonli qarori, 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi 2022 yil PF-60-son farmonlari ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent moliya instituti, O'zbekiston auditorlar palatasi va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan ishlab chiqilgan.

2. Yuqorida nomi qayd etilgan malaka talabini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalari - Toshkent moliya instituti professor-o'qituvchilari, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari o'z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etganlar.

3. 70410102 – *Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi malaka talabi kadrlar iste'molchisi - O'zbekiston auditorlar palatasi mutaxassislari, Toshkent moliya instituti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan mazmunan o'rganildi hamda ularni maromiga yetkazish maqsadida tegishli takliflar bildirildi. Bu takliflar malaka talablarini mukammallashtirishda inobatga olindi.

4. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur malaka talabini o'quv jarayonlariga tatbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz.

Toshkent moliya instituti rektori

O'zbekiston Auditorlar palatasi  
Kengash raisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

T. Teshabayev

N. Karimov

K. Sharipov

